

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

1-son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 1 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

Yakubov Akmal

SOVET HOKIMIYATINING TURKISTONDA SOVET RESPUBLIKALARINI BARPO ETISH BO'YICHA SIYOSATI	09-21
--	-------

Сапарбаев Бунёд Хуррамбек оглы

МЕЖДУ ДИПЛОМАТИЕЙ И ИМПЕРСКОЙ СТРАТЕГИЕЙ: ВЗАИМООТНОШЕНИЯ ХИВИНСКОГО ХАНСТВА И РОССИИ В ПЕРИОД ПРАВЛЕНИЯ МУХАММАДА РАХИМХАНА I (1806–1825 гг.)	22-31
--	-------

Gadoyev Dadaxon Xayrulloevich

DEGGARON MASJIDINING SOVET O'LKASHUNOSLARI TOMONIDAN O'RGANILISHI	32-47
---	-------

Dadajonov Tursunboy Abdusamatovich

QO'QON XONLIGI DAVRIDA HARBIY KUCHLARNING QUROL-ASLAHALAR BILAN TA'MINLANISHI VA MODDIY BAZASINING RIVOJLANISH JARAYONI	48-53
--	-------

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Umurzaqova Umida Nosirjanovna, Gafurjonov Jamshidbek Furkat o'g'li

SUV RESURSLARIDAN FOYDALANISHNI IQTISODIY-EKOLOGIK OPTIMALLASHTIRISH IMKONIYATLARI BO'YICHA JAHON TAJRIBASI TAHLILI	54-58
--	-------

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Yunusova Manzuraxon Pazliddinovna

O'ZBEKISTONDA O'ZINI O'ZI BOSHQARISH ORGANLARINI FUQAROLIK JAMIYATINING MUHIM INSTITUTI SIFATIDA ISLOH ETISH JARAYONI	59-68
--	-------

Karimov Xurshid Abdumannabovich

AN'ANA VA AXLOQIY UNIVERSALIZM – FALSAFIY KOMPARATIVISTIKA KONTEKSTIDA	69-74
---	-------

Egamberdiyev Baxriddin Baxodir o'g'li

O'ZBEKISTONDA MAHALLIY ODATLAR VA MAROSIMLARNING SHAKLLANISHI VA ULARNING FALSAFIY-TARIXIY MOHIYATI.....	75-82
---	-------

Norqulov Shahzod Shuhrat o'g'li

IJTIMOIIY REKLAMA TUSHUNCHASI: MOHIYAT VA FUNKSIYALAR	83-87
---	-------

Beshimov Xamidjon Sayidovich

FUQAROLIK JAMIYATI TARAQQIYOTIDA INSON QADRINI BELGILASH MEZONLARI HAMDA ZAMONAVIY JAMIYATDA INSON QADRINI TA'MINLASHDA KASABA UYUSHMALARINING ROLI.....	88-96
--	-------

Нишонов Сарвар Жасур угли

ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ СМЫСЛООБРАЗУЮЩИХ КАТЕГОРИЙ СОЦИАЛЬНОЙ ЖИЗНИ ЛИЧНОСТИ (НА ПРИМЕРЕ ПРОИЗВЕДЕНИЙ ХУСЕЙНА ВАИЗА КАШИФИ)..	97-105
---	--------

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

Uzakova Go'zal Sharipovna

SHAHARLARDA ATROF MUHIT MASALALARINI HAL ETISHDA JAMOATCHILIK
ISHTIROKINI TA'MINLASHNING HUQUQIY MASALALARI..... 106-112

Eshimbetov G'ulomjon Sultonbayevich

ICHKI ISHLAR ORGANLARINING KADRLAR BILAN ISHLASH XIZMATLARI
FAOLIYATINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI 113-122

Egamberdiyev Vohidjon Otabekovich

JAZONI IJRO ETISH MUASSASASIDAN OZOD ETILGAN SHAXSLARNI IJTIMOY
REABILITATSIYA QILISH VA MOSLASHTIRISH TUSHUNCHASI
HAMDA IJTIMOY ZARURATI 123-132

Марданов Жасурбек Отабек угли

УГОЛОВНОЕ ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ ВОВЛЕЧЕНИЯ НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНЕГО В
АНТИСОЦИАЛЬНОЕ ПОВЕДЕНИЕ 133-138

Mamadjonov Temurali Barotjon o'g'li

FUQARONI BEDARAK YO'QOLGAN DEB TOPISH VA VAFOT ETGAN
DEB E'LOH QILISHNING AYRIM MASALALARI 139-143

Jumumbetov Rasul Jengizbayevich

GEOGRAFIK KO'RSATKICHLARDAN FOYDALANISH HUQUQIY
TA'MINLASH MUAMMOLARI 144-150

Suyunov Bobir Bahodirovich,

RAQAMLI JAMIYATDA TALON-TAROJLIK:
KIBER-XAVFLAR VA ULARNI OLDINI OLISH YO'LLARI..... 151-155

Kdirbaeva Altinay Maksetbaevna

ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA XOTIN-QIZLAR XIZMAT O'TASH TARTIBINI
BELGILASHGA DOIR RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR TAJRIBASINING ILMIY TAHLILI 156-163

Abduhoshimov Ismoil Abdug'ani o'g'li

KORRUPSION JINOYATLARNING O'ZIGA XOS TAHLILI..... 164-168

Хошимова Юлдузхон Олимжоновна

СОВРЕМЕННЫЕ ПРОБЛЕМЫ ПРИЗНАНИЯ ОБЩЕИЗВЕСТНЫХ
ТОВАРНЫХ ЗНАКОВ 169-175

Abdugaffarov Davronbek Dilshod ugli

ALIGNING UZBEKISTAN'S PRIVATE INTERNATIONAL LAW WITH WTO PRINCIPLES:
THE ROLE OF CHOICE OF LAW IN GATS IMPLEMENTATION 176-180

Aripov Abid Adilovich

O'ZBEKISTONDA CHET EL FUQAROSI TUSHUNCHASI VA HUQUQIY MAQOMI..... 181-189

Tolibbayeva Malika Ulmasjon qizi

ADVOKATNING IQTISODIY VA FUQAROLIK PROTSESSIDAGI ISHTIROKI:
XORIJIY VA MILLIY QONUNCHILIK TAHLILI..... 190-197

Нормуродова Азиза Азимжон кизи

СЕКСУАЛЬНОЕ НАСИЛИЕ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИЗОБРАЖЕНИЙ В РЕСПУБЛИКЕ
УЗБЕКИСТАН: ОЦЕНКА ДЕЙСТВУЮЩЕГО ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА И ПУТИ ЕГО
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ 198-204

Abdullayeva Parvina Baxrillovna

RAQAMLI PLATFORMALAR BILAN BOG'LIQ TUSHUNCHALAR TALQINI 205-212

Nurmatov Jasur

OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARI O'RTASIDA HUQUQBUZARLIKLAR

PROFILAKTIKASINING RETROSPEKTIV TAHLILI 213-222

Шадуева Сайёра Арифовна

ОСОБЕННОСТИ РАССМОТРЕНИЯ ДЕЛ О ПРИМЕНЕНИИ МЕР ПРАВОВОГО

ВОЗДЕЙСТВИЯ К СУБЪЕКТАМ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА 223-233

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Umarov Bahrom Norboyevich

DARSLIK MANTLARI VA KOMPETENSIYA PARADIGMASI:

NISBAT MUNOSABAT VA O'ZARO BOG'LIKLIK ("ONA TILI DARSLIGI MISOLIDA")..... 234-241

Qurbonova Barchinoy Mirzahamdammovna

TOPOGRAFIK KARTALARGA OID TUSHUNCHALAR, ENG MUHIM SHARTLI BELGILAR

VA LANDSHAFT DIZAYNIDA ICHKI FAZOVIIY MUHIT, HAJMIY SHAKL

VA TEVARAK-ATROF 242-246

Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich

QALAMTASVIRDA GEOMETRIK SHAKLLARDAN TASHKIL TOPGAN NATYURMORT

HAMDA TEXNIK VA SAN'AT FANLARINI TURLI FANLAR BILAN INTEGRATIV

HAMDA SINERGETIK O'QITISHNI NAZARIY YECHIMLARI 247-251

Temple Chimuany Odimegwu

REVIEW ON FILLER EFFECT OF VARIOUS NONREACTIVE MATERIALS

IN CONCRETE 252-265

Arustamyan Yana Yuryevna, Toshpo'latov Omonulloxon Ulmas o'g'li

O'ZBEKISTON XUSUSIY UNIVERSITETLARIDA TA'LIMNI BOSHQARISHNING

HOZIRGI HOLATI, STRATEGIK YECHIMLARI VA ISTIQBOLDAGI RIVOJLANISH

SSENARIYLARI 266-271

Berdiyeva Nilufar Berdiyeva qizi

INNOVATSION YONDASHUVNING BO'LAJAK PEDAGOG VA TARBIYACHILARNING

IJODIY KOMPETENSIYASIGA TA'SIRI 272-277

Otamuratov Maqsudbek Shonazarovich

O'ZBEKISTON OLIY TA'LIMIDA KREDIT-MODUL TIZIMINING PEDAGOGIK

ASOSLARI VA UNING TA'LIM JARAYONIGA TA'SIRI 278-283

Kurbonova Shoxsanam

TASVIRIY SAN'AT FANLARINI O'QITISHDA O'QUVCHILAR O'QUV-IJODIY

FAOLIYATINI INTEGRATIV RIVOJLANTIRISH METODIKASI..... 284-289

Toxirov Shaxzod Toxirovich

IJTIMOIIY INTELEKTNING TARKIBIIY QISMLARI VA UNING PEDAGOGIK

FAOLIYATDA TUTGAN O'RNI..... 290-294

Raximdjanoval Malikaxon Gapurdjanovna, Baybabayeva Shoiraxon Ismatovna

GLOBAL KONTEKSTLARGA MADANIYATLARARO KOMPETENSIYA

UCHUN TANQIDIY FIKRLASH 295-300

07.00.00-TARIX FANLARI – HISTORICAL SCIENCES**Received:** 16 December 2025**Accepted:** 1 January 2026**Published:** 15 January 2026*Article / Original Paper***THE POLICY OF THE SOVIET GOVERNMENT ON THE ESTABLISHMENT OF SOVIET REPUBLICS IN TURKESTAN****Akmal Yakubov,**

Sharof Rashidov Samarkand State University

DSc Doctoral Candidate

E-mail: akmalyakubov1981@gmail.com;akmal.yakubov.81@mail.ru

Abstract. This article examines key aspects of the consistent policy pursued by the Soviets, who came to power following the coup d'état carried out by the Left Socialist Revolutionaries and the Bolsheviks on October 25, 1917, aimed at establishing "national" Soviet republics in Turkestan. Based on the contextual conditions of the historical period, the study analyzes the gradual political transformations implemented by the Soviet government between 1917 and 1924 in this direction, as well as the subsequent process that led to the division of Turkestan into several "national" Soviet republics. The analysis relies on existing scholarly literature and archival documentary sources.

Keywords: protectorate, bourgeois revolution, October coup, leftist factions, Soviets, Young Bukharians, Young Khivans, autonomy, national Soviet republics.

SOVET HOKIMIYATINING TURKISTONDA SOVET RESPUBLIKALARINI BARPO ETISH BO'YICHA SIYOSATI**Yakubov Akmal**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

DSc doktorant

Annotatsiya. Ushbu maqolada 1917-yil 25-oktyabrda so'l eserlar va bolsheviklar tomonidan amalga oshirilgan davlat to'ntarishi oqibatida hokimiyat tepasiga kelgan sovetlarning Turkistonda "milliy" sovet respublikalarini tashkil etish bo'yicha olib borgan izchil siyosatining muhim jihatlari ochib berilgan. Mavjud tarixiy vaziyat kontekstidan kelib chiqib, sovet hokimiyatining 1917-1924-yillarda bosqichma bosqich bu yo'nalishdagi siyosatida amalga oshirgan o'zgarishlari va buning oqibatida Turkistonning bir nechta "milliy" sovet respublikalariga bo'linib ketish jarayoni mavjud tarixiy adabiyotlar ham hujjatli manbalar asosida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: protektorat, burjua inqilobi, oktyabr to'ntarishi, so'l unsurlar, sovetlar, yosh buxoroliklar, yosh xivaliklar, muxtoriyat, milliy sovet respublikalari.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I1Y2026N01>

Kirish. XX asr boshlarida jahon siyosiy xaritasida sodir bo'lgan ulkan geosiyosiy o'zgarishlar orasida Turkiston o'lkasida sovet hokimiyatining o'rnatilishi va shundan so'ng "milliy" sovet respublikalarini barpo etish siyosati alohida o'rin tutadi. 1917-yil 25-oktyabrda Petrogradga amalga oshirilgan davlat to'ntarishi natijasida hokimiyat tepasiga kelgan bolsheviklar rahbarligidagi sovet hukumati Turkistonni ham yangicha siyosiy-huquqiy makonda qayta shakllantirishga kirishdi. Bu jarayon sobiq Rossiya imperiyasining koloniyasi

bo'lgan o'lkaning taqdiri, uning siyosiy-hududiy manzarasi va milliy tarkibi uchun uzoq muddatli va chuqur oqibatlariga ega bo'ldi. Fevral burjua inqilobi va Oktyabr to'ntarishi natijasida Rossiyada ko'p asrlik monarxiya tugatilishi, respublika tuzumining ham qisqa fursatda inqirozga uchrashi Markazdagi siyosiy beqarorlikni yanada chuqurlashtirdi. Mazkur beqarorlik va fuqarolar urushi sharoitida Turkistonda ham hokimiyat uchun kurash yangi bosqichga ko'tarildi: bir tomonda mustamlakachilik siyosatiga qarshi milliy-ozodlik harakatlari kuchaysa, ikkinchi tomonda esa bolsheviklar va boshqa so'l unsurlar sovet tuzumini o'rnatish va mustahkamlashga harakat qildi. Bu jarayonda "milliy sovet respublikalari" g'oyasi ideologik jihatdan jozibador shiorlar orqali ilgari surilgan bo'lsa-da, amaliyotda u markazlashgan, totalitar boshqaruv tizimi manfaatlariga bo'ysundirilgan siyosat ko'rinishida namoyon bo'ldi.

1917-yil 2-noyabrda e'lon qilingan "Rossiya xalqlari huquqlari deklaratsiyasi" va undan keyingi qator dekretlarda sobiq imperiya xalqlarining tengligi, o'z taqdirini o'zi belgilash, hatto ajralib chiqish huquqi e'tirof etildi. Shu bois Turkiston, Buxoro, Xiva va Qozog'istondagi milliy-siyosiy elita va oydinlar guruhlarining bir qismi (yosh buxoroliklar, yosh xivaliklar, Alash-O'rda, Turkiston Muxtoriyati tarafdorlari va boshqalar) dastlab sovet hokimiyatini milliy suverenlikka erishishning muvaqqat hamkor sifatida qabul qildilar. Ammo qisqa tarixiy tajriba shuni ko'rsatdiki, "milliy davlat qurish" shiorlari ortida Turkistonni etnik va ma'muriy jihatdan parchalash, uni Moskvaning siyosiy-nazariy ta'siri doirasida saqlab qolish maqsadi yotar edi. I.Stalin tomonidan nazariy jihatdan asoslangan "korenizatsiya" siyosati ham boshlang'ich bosqichda mahalliy kadrlarni davlat boshqaruviga jalb etish, milliy til va madaniyatni rivojlantirish, mahalliy xususiyatlarni hisobga olish kabi ijobiy shiorlar bilan niqoblandi. Lekin 1920-yillar o'rtasidan boshlab bu siyosat bosqichma-bosqich "markazlashtirish", ma'muriy bo'ysunishni kuchaytirish, milliy elitaning mustaqil qanotlarini cheklash va yo'q qilish usullari bilan almashdi. 1924-yildagi milliy-hududiy chegaralanish natijasida Turkiston hududi O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston, Tojikiston, shuningdek Qoraqalpog'iston kabi bir nechta "milliy" sovet respublikalari va avtonom tuzilmalarga bo'lindi. Bu jarayon resdorona geosiyosiy loyiha sifatida Turkiston xalqlarining yagona siyosiy makon sifatidagi rivojlanish imkoniyatlarini jiddiy tarzda cheklab qo'ydi.

Mazkur masalaning tarixshunosligi ham o'ta ziddiyatlidir. Sovet davridagi rasmiy adabiyotlarda bu jarayon "milliy davlatchilikni tiklash", "millatlar do'stligi asosida yangi sotsialistik tuzum qurish" sifatida ideallashtirib ko'rsatilgan. G'arb va turk tadqiqotchilari esa bu siyosatni sovet imperializmining yangi shakli, "berilgan mustaqillik"dan "qaytarib olingan mustaqillik" gacha bo'lgan bosqichlar sifatida baholaydi. Mahalliy mustaqil tadqiqotlarda esa Turkistonning parchalanishi, Alash-O'rda, Turkiston Muxtoriyati, Buxoro va Xorazm xalq sovet respublikalari tajribasi yangi faktlar va arxiv materiallari asosida qayta ko'rib chiqilmoqda. Shunday tarzda, Turkistonda sovet hokimiyati tomonidan "milliy" sovet respublikalarini barpo etish siyosati o'zida bir vaqtning o'zida islomiy-sharqona meros, kolonial muqaddima va bolshevistik inqilob ideologiyasi to'qnashuvini mujassam etgan murakkab tarixiy fenomen hisoblanadi. Ushbu maqolaning dolzarbligi shu bilan belgilanadiki, u 1917–1924-yillar oralig'ida Turkistonda amalga oshirilgan siyosiy o'zgarishlarni nafaqat formal-huquqiy islohotlar sifatida, balki mintaqaning uzoq muddatli milliy-hududiy taqdiriga ta'sir ko'rsatgan kompleks geosiyosiy jarayon sifatida tahlil qiladi.

Maqolaning maqsadi – 1917-yil Oktyabr to'ntarishidan keyin sovet hokimiyatining Turkistonda "milliy" sovet respublikalarini barpo etish bo'yicha olib borgan bosqichma-

bosqich siyosati mohiyatini ochib berish, bu jarayonning asosiy bosqichlari, harakatlantiruvchi ichki va tashqi omillarini aniqlash, shuningdek Turkistonning bir necha “milliy” sovet respublikalariga bo‘linishi oqibatlarini tarixiy adabiyotlar va hujjatli manbalar asosida tahlil qilishdan iborat. Tadqiqotning obyekti – 1917–1924-yillarda Turkiston o‘lkasida sovet hokimiyati tomonidan amalga oshirilgan davlat va ma‘muriy-hududiy siyosat; predmeti – mazkur siyosat doirasida “milliy” sovet respublikalarini barpo etish g‘oyasi, uning amaliy mexanizmlari va mintaqaviy oqibatlaridir. Maqolada sifat jihatdan tahliliy, tarixiy-qiyosiy, manbashunoslik usullaridan foydalaniladi, xorijiy va mahalliy tarixchilar asarlari, arxiv hujjatlari, shuningdek, sovet davridagi rasmiy nashrlar qiyosan o‘rganiladi.

Shu asosda keyingi bo‘limlarda Turkistonda sovet hokimiyatining o‘rnatilishi, “milliy” sovet respublikalarini barpo etish bo‘yicha amalga oshirilgan bosqichma-bosqich siyosat, Buxoro va Xivada monarxiya tuzumlarining ag‘darilishi, Turkiston ASSR, XXSR va BXSRTajribalari hamda 1924-yilgi milliy-hududiy chegaralanish jarayonlari alohida tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili va muhokama. Turkistonda sovet hokimiyatining o‘rnatilishi va 1917–1924-yillarda “milliy” sovet respublikalarini barpo etish bo‘yicha amalga oshirilgan siyosatni o‘rganishda mavjud tarixiy-nazariy manbalar muhim ahamiyatga ega. Mavzuni tadqiq etish jarayonida xorijiy va mahalliy mualliflarning asarlari, arxiv hujjatlari hamda zamonaviy tarixshunoslikdagi yondashuvlar tahlil etildi. Ushbu adabiyotlar turli ilmiy maktablarning qarashlarini aks ettirib, sovet milliy siyosati mohiyatini har tomonlama yoritish imkonini beradi.

Avvalo, sovet hokimiyatining milliy masala bo‘yicha e‘lon qilgan dastlabki siyosiy bayonotlari tahlil etilganda, “Rossiya xalqlari huquqlari deklaratsiyasi” (1917)ning g‘oyaviy asoslari yangi tuzumning siyosiy maqsadlarini ochib beruvchi muhim manba ekanligi ko‘rinadi. Deklaratsiyadagi “har bir xalqning o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqi” kabi qoidalar bir tomondan Turkiston xalqlari orasida umid uyg‘otgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan bu qoida amalda siyosiy texnologiya sifatida ishlatilgani keyingi manbalarda tilga olinadi. Masalan, R.Deniyels, I.Ratikovskiy kabi g‘arblik tadqiqotchilar Lenin va bolsheviklar tomonidan milliy masaladagi shiorlar taktik xarakterga ega bo‘lganini ta’kidlaydilar. Ularga ko‘ra, bolsheviklar milliy mustaqillik tamoyilini rasman tan olgan bo‘lsalar-da, aslida markazning manfaatlariga mos “avtonom sovet respublikalari” tizimini shakllantirishni maqsad qilganlar.

Turkistondagi inqilobiy harakatlar dinamikasini yoritishda mahalliy olimlar — Q.Rajabov, M.Qoiygeldiyev, S.Ershahin, I.Hasanog‘lu tomonidan yozilgan maqolalar va monografiyalar muhim o‘rin tutadi. Q.Rajabovning Turkiston Muxtoriyati, Alash-O‘rda, Buxoro va Xivadagi siyosiy kurashlar bo‘yicha tadqiqotlari sovet hokimiyatining o‘lkadagi harakatlariga tanqidiy yondashuvni shakllantiradi. Uning fikricha, 1917–1920-yillardagi inqilobiy jarayonlar sovet hokimiyati tomonidan “milliy ozodlik” harakati sifatida emas, balki “sobiq mustamlakalarni markazga qaram holda saqlab qolish”ning yangi usuli sifatida yuritilgan.

Boshqa bir yo‘nalishdagi tadqiqotlar — xususan, G.Safarovning “Kolonialnaya revolyutsiya” asari Turkistondagi inqilobiy harakatlar mohiyatini sovet idorachilari nuqtai nazaridan yoritadi. Safarov Turkistondagi rus askarlarining va mahalliy sovet guruhlarining xatti-harakatlarini “iste‘molchi kommunizmi” deb ta’riflar ekan, o‘lkadagi vaziyatning ziddiyatli va qaltis tabiatini yaqqol ko‘rsatib beradi. Uning bayonotida Turkistondagi inqilobiy harakatlar

mahalliy aholi manfaatidan ko'ra, rus garnizonlari va inqilobiy kuchlarning ichki qarama-qarshiliklari bilan belgilangani ta'kidlanadi.

Shu bilan birga, Buxoro va Xivadagi sulola tuzumini ag'darishga doir adabiyotlar ham mavzuda muhim o'rin tutadi. "Buxarskaya Narodnaya Sovetskaya Respublika" haqidagi Bolshaya sovetkaya ensiklopediyadagi ma'lumotlar, Turkiston fronti harakatlarini yorituvchi asarlar, F.Xo'jayev va yosh buxoroliklar faoliyatiga oid tadqiqotlar sovet intervensiyasining harbiy-siyosiy mexanizmlarini ochib beradi. Masalan, M.Frunze qo'mondonligidagi bosqin 1920-yil 29-avgustda boshlab, qisqa fursatda Buxoro amirligining yiqilishini ta'minlagani haqidagi ma'lumotlar tarixiy jarayonning rejalashtirilgan va markazlashgan xususiyatga ega bo'lganini ko'rsatadi.

G'arb olimlari tomonidan yozilgan tadqiqotlar — jumladan, P. Bergning Qo'qon Muxtoriyati haqidagi ilmiy asari — Turkistondagi milliy davlatchilik harakatlariga mutlaqo boshqacha optikadan yondashadi. Unda bolsheviklarning Turkiston Muxtoriyatiga nisbatan dushmanona pozitsiyasi va uni harbiy kuch bilan yo'q qilgani xalqaro huquq nuqtai nazaridan baholanadi. Bergnega ko'ra, Qo'qon Muxtoriyati qisqa umr ko'rgan bo'lsa-da, u haqiqiy milliy davlatchilik uchun ilk urinish sifatida tarixiy ahamiyatga ega.

I.Stalinning "Marksizm va milliy masala" hamda uning 1924-yildan keyingi siyosiy amaliyotini o'rganuvchi tadqiqotlar mavzuda alohida toifa hisoblanadi. Bir tomondan, Stalin milliy masalani "iqtisodiy bazis"ga bog'lab izohlaydi, boshqa tomondan esa, amaliy siyosatda milliy-hududiy chegaralanishni etnik guruhlarini bel-bel qilish va markazga bog'lab qo'yish strategiyasi sifatida qo'llagan. Zamonaviy mualliflar — R.M. Cucciola, B. Dave kabi tadqiqotchilar bu jarayonlarni sovet davlatini mustahkamlashga qaratilgan geosiyosiy loyiha sifatida baholaydilar.

Arxiv manbalari (O'zR PAA, 60-jamg'arma, 1-ro'yxat, 3177-yig'majild) esa tarixiy voqealarning to'g'ridan-to'g'ri guvohi bo'lib, sovet hukmronligi davridagi qarorlar, murojaatlar va ichki yozishmalarning mohiyatini ochib beradi. Bu hujjatlar Turkistondagi siyosiy o'zgarishlarning ko'p jihatlari Moskvada shakllantirilgan markaziy siyosatning tarmoqli qismi ekanini tasdiqlaydi.

Tahlil qilingan adabiyotlardan kelib chiqib aytish mumkinki, sovet hokimiyatining Turkistonda "milliy" respublikalarni barpo etish siyosati ikki qarama-qarshi yo'nalishda rivojlangan:

- Rasmiy ritorikada — xalqlarning o'z taqdirini o'zi belgilash, tenglik, millatlarning erkin rivojlanishi;
- Amalda — mintaqa ustidan siyosiy-nazariy hukmronlikni saqlab qolish, etnik guruhlarini parchalash, Moskvaga bog'langan mahalliy elitani shakllantirish.

Mana shu ziddiyatli tabiat mavzudagi barcha asosiy adabiyotlarda qay darajada bo'lmasin aks etgan. Ayniqsa, mahalliy tadqiqotchilar bu jarayonni mustamlakachilik siyosatining davomiy ko'rinishi sifatida baholaydi, g'arblik olimlar esa uni bolshevistik inqilobning geosiyosiy strategiyasi sifatida ko'radilar. Sovet davri tarixshunosligi esa bu jarayonni sotsialistik davlat qurilishi doirasidagi "milliy tiklanish" sifatida talqin qilgan.

Shu tariqa, mavjud adabiyotlar tahlili Turkistondagi milliy-hududiy tashkilot va chegaralanish siyosati bir vaqtning o'zida ham siyosiy-ideologik, ham geostrategik vazifalarni bajarganini, uning oqibatlari esa mintaqaning keyingi tarixiy rivojlanishiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatganini ko'rsatadi.

Muhokama. Turkiston xalqlari yarim asr davomida (*Bu yerda Turkiston yerlarining katta qismi 1867-1917-yillarda Turkiston general-gubernatorligi misolida Rossiya imperiyasi tarkibida bo'lganligi nazarda tutilmoqda. Zero, 1917-yilga kelganda Turkiston o'lkasining katta qismi Rossiya imperiyasiga qaram bo'lib, rasman bo'lsa-da, o'z mustaqilligini saqlab qolgan Buxoro amirligi va Xiva xonligi amalda "Rossiya imperatorining protektorati" ostida rus davlatiga qaram edi – A.Ya.*) Rossiya imperiyasining mustamlakachilik va o'lka boyliklarini o'zlashtirishga asoslangan iqtisodiy-moliyaviy tuzumi ostida yashagan bo'lsa, 1917-yil bahoridan o'lkada fevral burjua inqilobi va sovetlarning oktyabr to'ntarishi oqibatida jiddiy ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar yuz bera boshladi. Fevral burjua inqilobi Rossiyada ko'p asrlik monarxiya tuzumiga barham bergan bo'lsa, sovetlarning V.I.Lenin boshchiligidagi bolsheviklar guruhi va boshqa muxolif unsurlar 1917-yil 25-oktyabrda Rossiyada shu yilning 1-sentyabrda Muvaqqat hukumat tomonidan e'lon qilingan [20: 26 b] respublika tuzumiga barham berdi. Rossiya va unga qaram bo'lgan o'lkalarda o'rnatilgan yangi – sovet tuzumi siyosat tarixida misli ko'rilmagan hodisa bo'lib, kelajakda butun dunyoda proletariat (mehnatkashlar – A.Ya.) diktaturasi o'rnatilajagini e'lon qildi. Bir so'z bilan aytganda bolsheviklar va boshqa so'l unsurlar yetakchiligida sovetlar tomonidan amalga oshirilgan davlat to'ntarishi sobiq Rossiyada imperiyasida o'rnatila boshlagan sovet tuzumidan tashqari barcha siyosiy tuzilmalarni rad qildi.

Bu yerda bolsheviklar guruhining yetakchilaridan biri L.Troskiyning 1917-yil oktyabr to'ntarishiga bo'lgan munosabati sovetlar tomonidan amalga oshirilgan to'ntarish va uning ortidan boshlangan inqilobiy o'zgarishlar ko'lamini tushunishda juda muhim hisoblanadi. 1917-yil 25-oktyabrda Muvaqqat hukumat joylashgan Qishki saroyga bostirib kirishdan oldin L.Troskiy A.Kerenskiy hukumatiga quyidagi talabni e'lon qilgan edi: *"Hukumatimiz (sovet hukumati – A.Ya.) Muvaqqat vazirlar mahkamasiga chinakam xalq hukumatini o'rnatishga yo'l ochish uchun ishonib topshirilgan hukumatni tarix supurgisi olib ketishini kutayotgan ayanchli va ojiz hukumat deb hisoblaydi"* [12: 69 b].

Shu bilan birga, L.Troskiyning 1917-yil 3-noyabr kuni Smolnii saroyiga chaqirilgan ishchi, dehqon va soldat deputatlari majlisida so'zlagan nutqi ham bu to'ntarish va uning ortidan boshlangan inqilobiy o'zgarishlarning mohiyatini tushunishda muhim ahamiyatga ega. L.Troskiy saroyga kelgan deputatlarga murojaat qilib, *"Xush kelibsiz, o'rtoq deputatlar! Siz bu yerga mehmon sifatida emas, balki rus inqilobining yuragi bo'lgan shu xonadonning xo'jayini sifatida keldingiz. Hozir bu zalda millionlab mehnatkashlarning irodasi birlashdi"* [12: 283 b].

Ta'kidlash joizki, sovetlar tomonidan amalga oshirilgan davlat to'ntarishi oqibatida boshlangan inqilobiy harakatlar faqat Moskva yoki Rossiyaning boshqa yirik shaharlari bilan chegaralanib qolmadi. Qisqa vaqt ichida Turkiston o'lkasi ham sobiq Rossiya imperiyasining deyarli barcha hududlarini qamrab olgan bu inqilobiy harakatlarning asosiy markazlaridan biriga aylandi. Chunki Petrogradga boshlangan keskin siyosiy o'zgarishlar Rossiya imperiyasining mustamlakasi bo'lgan Turkiston o'lkasiga ham o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmadi. Bu yerda ham ishchi, dehqon va soldat deputatlari Sovetlari tuzila boshlandi [18: 15 b].

1917-yil 25-oktyabrda Petrogradga sovet hokimiyatining o'rnatilgani e'lon qilingach, V.I.Lenin va bolsheviklar tomonidan e'lon qilingan dasturlar sobiq shu paytga qadar misli ko'rilmagan va'dalarni o'z ichiga olgan edi. Xususan, *"Non hamma uchun, mehnat hamma uchun", "Yer va suv dehqonlarga, zavod va fabrikalar ishchilarga!", "Butun hokimiyat sovetlarga!",*

“Xalqlarga tinchlik!” kabi shiorlarni o‘z ichiga olgan bu va‘dalar Turkiston xalqlari uchun ham yarim asrlik mustamlakachilik hukmronligi nihoyasiga yetganligini anglatar edi. Shuningdek, keyinroq VKP (b) ga aylangan RSDRP (b) ning *“Millatlar masalasi”* deb nomlangan dekretida sobiq Rossiya imperiyasi tarkibidagi barcha xalqlarning Rossiyadan ajralib chiqish va mustaqillikka erishish huquqini tan olishini e‘lon qilingan edi [8: 316 b].

O‘z-o‘zidan urush va ocharchilikka barham berilishi, krepostnoylikning amalda yo‘q qilinishi, yer va suv islohoti, xalqlarning suverenligi huquqining tan olinishi kabi va‘dalar Turkiston oydinlari bir qismini sovet hokimiyatining qo‘llab-quvvatlashiga omil bo‘ldi. 1917-yil davomida Xiva va turkman oydinlari *“Yosh xivaliklar”*, buxorolik ma‘rifatparvarlar *“Yosh buxoroliklar”*, Toshkent, Samarqand va Farg‘onalik oydinlar *“Turkiston Muxtoriyati”*, qozoqlar *“Alash-O‘rda”* harakatlariga birlashdilar. Ushbu harakatlarning ba‘zilari sotsializmga intilib, bolsheviklar va boshqa so‘l unsurlar misolida sovet hokimiyatini qo‘llab-quvvatlagan bo‘lsa, Turkiston Muxtoriyati va Alash-O‘rda millatchilik xususiyati tufayli sovet hokimiyati tomonidan tan olinmadi. Ta‘kidlash lozimki, bu vaqtga kelib Turkistondagi inqilobiy harakatlar fonida *“yosh buxoroliklar”* va *“yosh xivaliklar”* eng faol va radikal harakatlar hisoblangan. Tez orada ular sovetlarning bevosita harbiy va siyosiy *“dastagi”* bilan Buxoro va Xiva davlatlarida monarxiya tuzumini ag‘dardilar va bolsheviklarning *“sovet davlati”* tipidagi dastlabki *“milliy”* sovet respublikalarini barpo etdilar. Bu to‘g‘risida maqolaning keyingi qismlarida tahliliy ma‘lumotlar keltiriladi.

1917-yil oktyabrda bolsheviklar va boshqa so‘l unsurlar tomonidan o‘rnatilgan sovet hokimiyati Rossiya imperiyasining Jahon urushidagi ishtirokiga va mamlakatda mavjud ijtimoiy va iqtisodiy beqarorlikka barham berish zaruratidan kelib chiqqan bo‘lsa, tez orada Rossiya imperiyasining barcha hududlarida sovet tuzumini o‘rnatishga bo‘lgan harakat sobiq imperiya tarkibidagi barcha xalqlarni qamrab olgan fuqarolar urushiga aylanib ketdi. Ushbu vaziyatda fuqarolar urushining ikkita asosiy unsuri monarxiyachi va respublikachi *“oq armiya”* va so‘l unsurlarning qurolli guruhlaridan iborat bo‘lgan *“qizil gvardiyachilar”* sobiq Rossiya imperiyasi tarkibidagi o‘ziga o‘xshash unsurlar tomonidan qo‘llab-quvvatlana boshladi. 1917-yil davomida Turkistonda harbiy-siyosiy jihatdan yuzaga kelgan vaziyatni o‘lkada sovet respublikalarini tashkil etishda alohida g‘ayrat ko‘rsatgan G.Safarov *“Bu yerdagi askar va ishchilar ommasiga ichki osoyishtalik, fuqarolar tinchligi va milliy birlikning saqlashning hech qanday ma‘nosi yo‘q edi. O‘zini o‘zi “demobilizatsiya” qilgan va “qizil gvardiyachilar”ga aylangan askarlar musulmonlarning yuqori qatlamlari, ulamo va boylari bilan aloqani yo‘qotmaslikka intilgan sobiq mustamlakachi ma‘muriyat tomonidan o‘ziga va‘da qilingan qulay turmush sharoitini yerli aholini talash hisobiga qo‘lga kiritdi. Rus kelgindilari to‘g‘risida hatto gapirmasa ham bo‘ladi. Fevral inqilobidan boshlab ular Turkistondagi qishloq va ovullarga xuddi o‘z hamyonlaridek xo‘jayinlik qila boshladilar. Agar askar va ishchi iste‘molchi kommunizmi to‘g‘risida gapirish mumkin bo‘lsa, bu aynan shu yerda – imperiyaning sobiq mustamlakasi – Turkistonda yuz berdi [21: 67 b]”,* so‘zlari izohlagan edi.

Bolsheviklar va so‘l unsurlar tomonidan amalga oshirilgan oktyabr to‘ntarishidan ilhomlangan so‘l unsurlar 1917-yil 1-noyabrda o‘lkada Rossiya imperiya mustamlakachilik siyosatining yurituvchi bo‘lgan general-gubernatorlikning ma‘muriy davomi bo‘lgan Turkiston qo‘mitasi faoliyatiga barham berdi va Toshkent shahrida de-fakto sovet hokimiyatini o‘rnatdi [25: 51 b]. Buning ortidan 1917-yil 2-noyabrda e‘lon qilingan va sovet hukumatining milliy masala bo‘yicha ilk hujjatlaridan biri hisoblangan *“Rossiya xalqlari huquqlari deklaratsiyasi”* da

[1] Rossiya xalqlarining tengligi va suverenligi, ularning o'z taqdirini o'zi belgilash, xususan ajralib chiqish va mustaqil davlat tashkil etish huquqi, barcha va har qanday milliy va milliy-diniy imtiyozlar va cheklovlarining bekor qilinishi va Rossiya hududida yashayotgan milliy ozchiliklar va etnik guruhlarining erkin rivojlanishi kabi asosiy negizlar qayd etilgan edi [14: 28-30 b].

Mazkur deklaratsiyada Rossiyadagi barcha xalqlarning teng huquqliligi ta'kidlangan, barcha diniy va milliy cheklovlar va taqiqlar bekor qilinishi ma'lum qilingan, eng muhimi, yangi Rossiyada har bir millatning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqi ta'minlashi e'lon qilingan edi. Ayniqsa, deklaratsiyaning 3-moddasiga ko'ra, Rossiya tarkibidagi har bir xalqning Rossiyadan alohida mustaqil davlat sifatida yashash huquqiga ega ekanligining ta'kidlanishi. Turkiston xalqlari uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi [5: 66 b]. Bu o'z navbatida Turkistondagi mahalliy madaniy va siyosiy elitaning, xususan ularning tarkibidagi radikal unsurlarning oktyabr to'ntarishidan sovet hokimiyati va qizil gvardiyachilarni qo'llab-quvvatlashida, Turkiston, Buxoro va Xivada hokimiyat jilovini o'z qo'llariga olish uchun bolsheviklar va boshqa so'l unsurlar bilan ishbirlikchilik qilishlarida muhim omillardan biri bo'ldi.

Aslida bu deklaratsiya o'lka xalqlarining Fevral inqilobidan keyin boshlangan milliy suverenlik va muxtoriyatchilik kabi "millatchilik" harakatlariga javoban e'lon qilingan edi. Chunki tarixiy jarayonlarning tahlilidan ham ma'lumki, tez orada millatchi qozoqlar va boshqirdlarning sa'y-harakatlari bilan Alash-O'rda Muxtoriyati [11: 156 b], Turkistonlik millatchilarning milliy, diniy va madaniy suverenlik uchun say-harakatlari natijasida Turkiston Muxtoriyati [2: 31 b] tashkil topgan edi. Rossiya imperiyasining sobiq protektoratlari Buxoro amirligi va Xiva xonligi Fevral inqilobidan so'ng Muvaqqat hukumat va uning o'lkadagi tamsilchisi bo'lgan Turkiston qo'mitasini qo'llab-quvvatladi hamda bolsheviklar va boshqa so'l unsurlarga qarshi qat'iy qarshi pozitsiyasini ko'rsatgan bo'lsalar, Oktyabr to'ntarishidan keyin sovet hukumati tomonidan e'lon qilingan "Deklaratsiya"ga asoslanib o'zlarining to'la mustaqilligini e'lon qilgan edi [24: 4 b].

E'tiborli jihati shundaki, sovet hokimiyati "Rossiya xalqlari huquqlari deklaratsiyasi"ni e'lon qilish bilan birga "korenizatsiya" deb nomlangan markazsizlashtirish siyosatini ham amalga oshirishga qaror qildi. "Korenizatsiya" siyosati "mahalliyashtirish" siyosati bo'lib, rus tilida "ildizga borish" degan ma'noni anglatadi. "Korenizatsiya" siyosati 1913-yildayoq bolsheviklar tomonidan qabul qilingan bo'lib, I.Stalinning "Marksizm va milliy masala" asarida nazariy jihatdan asoslangan bu siyosat yangi tashkil etiladigan "milliy" sovet davlatlari hukumatlari tarkibiga faqat rusiyzabon yevropaliklarni emas, balki joylardagi milliy-inqilobchi kadrlarni ham kiritishga asoslangan edi.

I.Stalin tomonidan "muxtoriyatchilik" va "ajralib chiqish huquqi" barcha xalqlar va millatlar uchun zarurat ekanligini ta'kidlagan, shu bilan birga bu huquqni suiiste'mol qilishdan qochish zarurligi ta'kidlagan. Uning fikricha, yangi tashkil etiladigan har qanday siyosiy tuzilma yoki davlat K.Marks va V.Lenin tomonidan g'oyaviy jihatdan asoslangan "sotsializm" yo'lidan og'ishmasligi kerak edi [22: 271-272 b]. Shu munosabat bilan u har bir millatni o'zining ichki ijtimoiy-siyosiy harakatlariga ko'ra loyihalash va sovet "inqilobi"ni amalga oshirish zarurligini ilgari suradi. Ammo Stalin "milliy davlat qurish masalasi"ni butunligicha iqtisodiy omillarga bog'lagan. Unga ko'ra, tuzilajak davrlarda ishlab chiqarish, savdo, xizmat ko'rsatish, qishloq xo'jaligi, yer-suv masalalari hal qilinib (*bu yerda "natsionalizatsiya" ya'ni davlat ixtiyoriga zo'rlik bilan olish nazarda tutilmoqda*), demokratlashtirishga erishilgach, milliy masala degan narsa

qolmaydi [22: 276-277 b]. Bu uning jiddiy xatosi bo'lib, sovet hokimiyati tomonidan keyingi yillarda va aynan Stalinning boshqaruvi davrida amalga oshirilgan sanoatlashtirish va qishloq xo'jaligini jamoalashtirish yillarida millionlab kishilarning ochlikdan qirilib ketishiga sabab bo'ldi.

Sovet hokimiyatining dastlabki yillardagi "milliy" davlatlar masalasidagi siyosati natijalariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, bolsheviklarning milliy masaladagi va'dalari va bayonotlaridan ilhomlangan, boshqa tomondan o'lkaning yirik shaharlari zo'rlik bilan sovet hokimiyatining o'rnatilishidan chorasiz qolgan Turkistonlik millatchilarning o'ng va markazchi, liberal va dindor kesimlari tamsilchilari Rossiyada mavjud kuchlarning qarama-qarshiligi yuzaga keltirgan harbiy-siyosiy vaziyat bergan fursatdan foydalanib, o'z muxtor davlatlarini tashkil etishga muvaffaq bo'ldilar. Qozoq va boshqird millatchilarining Alash-O'rda va Turkistonlik o'ng va markazchi guruhlarining Turkiston Muxtoriyati buning yorqin misolidir. Bu muxtoriyatlarni tashkil etgan millatchi zehniyatning sovet hokimiyati va bolsheviklar diktaturasiga nisbatan munosabatini Alash-O'rda Muxtoriyati hukumatining rahbari A.Bukeyxonovning V.Leninga yo'llagan maktubida keltirilgan "Rossiya proletariati asrlar davomida qozoq xalqiga zulm va jabr o'tkazib keldi, agar ular podshoh o'rniga oddiygina qirib tashlaydigan amaldorlar emas, mazlum xalqlarning ozod qiluvchisi bo'lishlari kerak bo'lsa, buni isbotlashlari kerak" [11: 160 b], so'zlaridan ham bilish mumkin.

Sovet hokimiyatining 1917-yil noyabridan boshlab Turkistonda amalga oshirilgan "milliy" sovet respublikalarini tashkil etish bo'yicha siyosati qizil armiya qismlari va dashnoq otryadlari tomonidan qonga botirilishi va RSFSR tarkibida Turkiston Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasining tashkil etilishi bilan boshlandi, deyish mumkin. 1918-yil 20-30-aprel kunlari bo'lib o'tgan o'lka Sovetlarning V qurultoyida Rossiya Sovet Federatsiyasining Turkiston Sovet Respublikasi tuzilganligi e'lon qilindi [9: 319 b]. Qurultoy ayni paytda P.Kobozev raisligida Turkiston ASSR MIQ va F.Kolesov raisligidagi Turkiston XKS tartibini ham tasdiqladi. Turkiston MIQ va XKS tarkibi deyarli teng ravishda bolsheviklar va so'l eserlardan tashkil topgan edi [25: 83-84 b]. E'tiborli jihati shundaki, Turkiston ASSR "milliy" sovet respublikasi deb e'lon qilinishiga qaramasdan, MIQ va XKS tarkibidagi kadrlarning asosiy qismi milliy emas, balki butunlay rus yoki rusiyazon yevropaliklardan iborat edi [9: 319 b]. Buni qurultoyda yangragan *"Hozirgi davrda inqilobiy boshqaruvning yuqori o'lka organlarida musulmonlarning ishtirok etishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi, chunki mahalliy aholining ishchi va dehqon deputatlari sovetlari boshqaruviga munosabati ma'lum emas, aholi orasida esa proletarlar tabaqasi yo'q"* [9: 319 b], degan so'zlar bilan ham izohlash mumkin. 1922-yil dekabrda Turkiston ASSR Sovet Sotsialistik Respublikalar Ittifoqining ajralmas qismi deb e'lon qilindi [4: 4 b].

Rossiyadagi Fevral inqilobi e'lon qilgan g'oyalarning ta'sirida Xiva xoni Asfandiyorxon 1917-yil 5-aprelda "Yosh xivaliklar" tomonidan taqdim etilgan islohotlar dasturini imzolashga majbur bo'lgan hamda Xivada Boboovun Salimov raisligida Majlis va Xusaynbek Matmurodov raisligida Nozirlar Kengashi tashkil etilgan edi. Oradan qisqa vaqt o'tib, Muvaqqat hukumatning xonlikdagi kuchlari yordamida Asfandiyorxon Yosh xivaliklar hukumatiga qarshi urush ochdi va 1917-yil noyabrda Majlis faoliyatini tugatdi [25: 107 b]. Bolsheviklarning Turkistonda hokimiyat tepasiga kelishi ham Xiva xonligidagi siyosiy beqarorlikni o'zgartirmadi, aksincha Asfandiyorxon o'zi tomonidan Xivaga chaqirilgan turkmanlarning yovmut urug'i sardori Junaidxon tomonidan 1918-yil 1-oktyabrda saroy to'ntarishi oqibatida o'ldirildi. Taxtga

xonning akasi Said Abdullaxon o'tqazilgan bo'lsada, amalda xonlikdagi butun hokimiyat Junaidxon qo'lida jamlangan edi. 1920-yil 25-yanvarda Jumaniyoz Sultonmurodov boshchiligidagi Xiva inqilobiy qo'mitasi xon hokimiyati va Junaidxon rejimini ag'darish uchun Turkistondagi sovet hokimiyatidan yordam so'rab murojaat qildi [8: 319 b]. 1920-yil 1-fevralda Turkiston fronti qo'shinlari va ularga qo'shilgan yosh xivaliklar Xiva shahrini egalladilar [23: 304-305 b] va Said Abdullaxon taxtdan voz kechdi [25: 112 b]. 1920-yil 26-30-aprel kunlari bo'lib o'tgan Butunxorazm xalq vakillarining I qurultoyida Xorazm Xalq Sovet Respublikasining tuzilganligi e'lon qilindi.

1917-yil noyabr oyining boshlarida Turkistonda joylashgan qizil armiya qismlari Turkiston XKS raisi F.Kolesov qo'mondonligida [8: 317 b] 1918-yil 2-martida Buxoro amirligiga qarshi uyushtirilgan avantiyurada jiddiy mag'lubiyatga uchragan va amir bilan 9 banddan iborat Qiziltepa bitimini imzolashga majbur bo'lgan edi [26: 116-117 b]. Biroq "yosh buxoroliklar"ning F.Xo'jayev boshchiligidagi tuzilgan 7 kishidan iborat Inqilobiy qo'mitasi [25: 100 b] amir hokimiyatiga qarshi kurashni davom ettirdi va ular 1920-yilga kelib Turkistonda ancha mustahkamlanib olgan bolsheviklar yordamida 1920-yil avgustida amirga qarshi inqilob uyushtirishni rejalashtirdilar [13]. 1920-yil 16-18-avgust kunlari amir Sayyid Olimxon buxorolik kommunistlar (*Buxoro Kommunistik partiyasi 1918-yil 25-sentyabrda Toshkentda bo'lib o'tgan Yosh buxoroliklarning yig'ilishida F.Xo'jayev boshchiligidagi guruh tomonidan tashkil etilgan edi*) va ularning ishbirlikchilari bo'lgan bolsheviklarga qarshi g'azovat (muqaddas urush) e'lon qilgan bo'lsa-da, 1920-yil 29-avgustga o'tar kechasi M.Frunze boshchiligidagi qizil armiya qismlari Buxoroga hujum boshladi [16: 12 b], 2-sentyabrda amirlik tuzumi qizil askarlar tomonidan ag'darib tashlandi [25: 131 b]. 1920-yil 6-8-oktyabr kunlari Buxoro amirlarining yozgi saroyi – Sitorai Mohi Xosada chaqirilgan Butunbuxoro xalq vakillarining I qurultoyida Buxoro Xalq Sovet Respublikasining tuzilganligi tantanali ravishda e'lon qilindi [19: 378 b].

Umuman olganda Turkistonda sovet hokimiyatining o'rnatilishi va bolsheviklarning "milliy" sovet respublikalarining tashkil etish bo'yicha olib borgan siyosatining birinchi bosqichi 1918 bahoridan 1920-yil kuzigacha bo'lgan suronli davrni qamrab oladi. Turkistonning markaziy, janubiy va g'arbiy qismlarida bu siyosiy o'zgarishlar sodir bo'lar ekan, uning shimolida tashkil etilgan Alash-O'rda Muxtoriyati ham sovet hokimiyatining jiddiy qarshiligiga uchradi. Alash-O'rda yetakchilarining sovet hukumati bilan tuzishga erishgan kelishuvi natijasida Qozoq inqilobiy qo'mitasi 1919-yil 10-iyulda qozoq yerlarini amalda boshqarish huquqini qo'lga kiritdi. 1920-yil 26-avgustda bu yerlar Qirg'iz Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasi nomi bilan RSFSR tarkibida huquqiy maqomga ega bo'ldi [8: 317 b].

Sovetlarning Turkistonda milliy sovet respublikalarni tashkil etish bo'yicha siyosatining 1924-yilgacha davom etgan birinchi bosqichida o'lkada Qirg'iz ASSR, Turkiston ASSR, XXSR va BXSr kabi siyosiy tuzilmalar paydo bo'ldi. 1924-yil yanvaridan I.Stalinning hokimiyatning butun jilovini o'z qo'liga olishi oqibatida "korenizatsiya" siyosati o'rniga "markazlashtirish" siyosati joriy etila boshlandi va o'lkadagi barcha "milliy" sovet respublikalari tugatilib, ularning o'rnida etnik tamoyillar asosida yangi sovet respublikalarini tashkil etish jarayoni boshlandi [10: 194 b]. Mintaqaning nufuzli va asosiy xalqi bo'lgan o'zbeklar chegaralanishdan eng katta jabr ko'rdi [15: 7 b].

Xulosa qilib aytganda, sovet hokimiyatining 1924-yildan keyin amalga oshirgan tadbirlari bugungi Turkiston – Markaziy Osiyo milliy-hududiy geografiyasini mohiyatan

shakllantirdi. Bolsheviklar Turkistonni nafaqat O'zbekiston, Qozog'iston, Turkmaniston, Tojikiston, Qirg'iziston kabi davlatlarga bo'linibgina qolmay, balki Qoraqalpog'iston va hatto Tog'li Badaxshonga ham muxtoriyat maqomini berdi. Bu siyosatning eng muhim oqibatlaridan biri yerlarning nomutanosib taqsimlanishi natijasida kelajakda etnik nizolarning paydo bo'lishi mumkinligi edi. Bu o'z navbatida sovet hokimiyati va uning "milliy" sovet respublikalarini tashkil etish bo'yicha bosh mafkurachisi I.Stalin tomonidan amalga oshirilgan rejaning asosiy g'oyalaridan biri edi. Sovetlar mintqa ustidan doimiy nazoratni saqlab qolishga harakat qilishdi va bu siyosatni "Bo'lib tashla va hukmronlik qil" degan ma'noni anglatadigan "Divide et Impera" deb ifodalash ham mumkin.

Natijalar. O'tkazilgan tadqiqot natijalari Turkistonda sovet hokimiyati tomonidan "milliy" sovet respublikalarini barpo etish siyosati mazmun-mohiyati bir qator o'ziga xos xususiyatlar bilan ajralib turganini ko'rsatdi:

Birinchi natija shundaki, 1917–1924-yillarda Turkistonda "milliy" sovet respublikalarini tashkil etish jarayoni rasmiy ritorikada "millatlarning o'z taqdirini o'zi belgilashi", "teng huquqlilik" va "milliy tiklanish" shiorlari bilan asoslantirilgan bo'lsa-da, amalda u markazlashgan totalitar tuzum manfaatlariga mos ravishda olib borilgan siyosiy-hududiy qayta taqsimlash siyosati bo'lgan. Turkiston ASSR, Buxoro va Xorazm xalq sovet respublikalarining barpo etilishida mahalliy aholi manfaatlaridan ko'ra Moskvada shakllantirilgan inqilobiy-siyosiy dastur ustuvor o'rin tutgan.

Ikkinchi natija sifatida, Turkistonda sovet hokimiyati o'rnatilishi va "milliy" respublikalar tashkil etilishi, avvalo, harbiy yo'l bilan hal etilgani ayon bo'ldi. Buxoro amirligi va Xiva xonligida monarxik tuzumning ag'darilishi, Qo'qon Muxtoriyati va Alash-O'rda harakatlarining yo'q qilinishida Qizil armiya qismlari va ular bilan hamkor so'l guruhlarining qo'lga qurol olgan holdagi ishtiroki hal qiluvchi omil bo'lgan. Bu esa sovet milliy siyosatining zohirdagi "avtonomiya" shiorlari ortida zo'ravonlikka tayanadigan imperiyaviy mexanizm yashirinib yotganini ko'rsatadi.

Uchinchi natija shundan iboratki, "Rossiya xalqlari huquqlari deklaratsiyasi" va "korenizatsiya" siyosati dastlab Turkistondagi milliy-siyosiy elita va oydinlar orasida katta umid uyg'otgan bo'lsa-da, qisqa vaqt ichida ushbu siyosatning chegaralari va shartli xarakteri namoyon bo'lgan. Turkiston ASSR MIQ va XKS tarkibida mahalliy musulmon kadrlarining cheklangan darajada va ko'proq ikkinchi planga surilgan holda ishtirok etishi, yuqori boshqaruv pog'onalarida rus va rusiyzabon yevropalik kadrlarning mutlaq ustunligi saqlab qolingani bunga yorqin misol bo'lib xizmat qiladi.

To'rtinchi natija, 1924-yilgi milliy-hududiy chegaralanish siyosati Turkistonni bir butun tarixiy-geografik makon sifatida saqlab qolish emas, balki uni milliy-etnik va ma'muriy jihatdan parchalash, o'zaro bog'liq iqtisodiy-ijtimoiy hududlarni turli respublikalar tarkibiga ajratib yuborishga qaratilganini ko'rsatdi. O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston, Tojikiston va Qoraqalpog'iston kabi yangi davlat tuzilmalarining vujudga kelishi bir tomondan formal "milliy davlatchilik" obrazini yaratgan bo'lsa, ikkinchi tomondan kelajakdagi chegaraviy nizolar, resurslardan nomutanosib foydalanish va markazga siyosiy-iqtisodiy bog'liqlikni chuqurlashtirish uchun zamin yaratgan.

Beshinchi natija sifatida aytish mumkinki, Turkistondagi milliy harakatlar — Turkiston Muxtoriyati, Alash-O'rda, yosh buxoroliklar va yosh xivaliklar faoliyati sovet hokimiyati tomonidan ikki xil yondashuv bilan baholangan: bir tomondan, ular bilan qisqa muddatli taktik

ittifoqlar tuzilgan, ikkinchi tomondan esa sovet tuzumi mustahkamlangan sari ushbu harakatlar “milliy burjuaziya”, “kontrevolyutsion kuchlar” deb talqin qilinib, siyosiy maydondan siqib chiqarilgan. Bu holat “milliy” respublikalar siyosati mahalliy elitaning mustaqil siyosiy soʻzini tan olish bilan emas, balki uni oʻzgartirib, sovet ideologik qoliplariga moslashtirish bilan bogʻliq boʻlganini koʻrsatadi.

Nihoyat, oʻtkazilgan tadqiqot shuni koʻrsatadiki, sovet hokimiyatining Turkistonda “milliy” sovet respublikalarini barpo etish siyosati qisqa tarixiy davr ichida mintaqa milliy-hududiy geografiyasini tubdan oʻzgartirib, Markaziy Osiyoning keyingi asrdagi siyosiy konfiguratsiyasi, etnik munosabatlari va davlatchilik modellariga uzoq muddatli taʼsir koʻrsatgan. Shu maʼnoda mazkur siyosatni faqat sovet milliy siyosati tarixidagi epizod emas, balki butun Turkiston – Markaziy Osiyo mintaqasining zamonaviy siyosiy xaritasi va ichki ziddiyatlarini shakllantirgan hal qiluvchi omillardan biri sifatida baholash mumkin.

Xulosa. Yuqoridagi tahlillar shuni koʻrsatadiki, sovet hokimiyati tomonidan Turkistonda “milliy” sovet respublikalarini barpo etish siyosati shaklan demokratik va milliy ozodlik shiorlari bilan niqoblangan boʻlsa-da, mazmun-mohiyati jihatidan markazlashgan totalitar tuzum manfaatlariga xizmat qilgan murakkab geosiyosiy loyiha edi. Oktyabr toʻntarishidan soʻng eʼlon qilingan “Rossiya xalqlari huquqlari deklaratsiyasi”, “millatlarning oʻz taqdirini oʻzi belgilash huquqi”, “korenizatsiya” kabi tamoyillar Turkiston xalqlari uchun muayyan umidlari uygʻotgan boʻlsa-da, amalda bu shiorlar cheklangan, shartli va vaqtinchalik xarakterga ega boʻlgani tarixiy jarayonlar bilan isbotlandi. Turkiston ASSR, Buxoro va Xorazm xalq sovet respublikalarining tashkil etilishi, Qoʻqon Muxtoriyati va Alash-Oʻrda harakatlarining faoliyati, Xiva va Buxoroda monarxiya tuzumlarining agʻdarilishi jarayoni shundan dalolat beradiki, Moskva markazi mintaqadagi barcha siyosiy oʻzgarishlarni oʻziga xos “inqilobiy nazorat” ostida amalga oshirishga intildi. Rasmiy ravishda “milliy davlatchilik” gʻoyasi ilgari surilgan boʻlsa-da, yuqori boshqaruv pogʻonalarida mahalliy kadrlar emas, balki rus va rusiyzabon yevropalik kadrlar ustun mavqeni egallagan. Bunday tizim Turkiston xalqlarining siyosiy subyekt sifatida emas, balki “Sovet Ittifoqi xalqlari” degan sunʼiy kategoriya doirasida qabul qilinishini taʼminlashga qaratilgan edi.

1924-yilgi milliy-hududiy chegaralanish siyosati Turkiston oʻlkasini tarixiy-siyosiy va iqtisodiy jihatdan bir butun makon sifatida saqlab qolish emas, balki uni bir-biriga bogʻliq bir qator “milliy” respublikalarga parchalash orqali markazga qaram holatda saqlab turishga xizmat qildi. Oʻzbekiston, Qozogʻiston, Qirgʻiziston, Turkmaniston, Tojikiston va Qoraqalpogʻiston kabi tuzilmalarning shakllanishi formal jihatdan milliy davlatchilik koʻrinishida boʻlsa-da, ularning chegaralari va ichki maʼmuriy tuzilishi koʻproq geosiyosiy va maʼmuriy mantiyqiga tayanib belgilangan. Bu esa keyingi oʻttiz–qirq yillik davrda mintaqada chuqur ildiz otgan etnik, demografik va resurslarga doir ziddiyatlar uchun zamin yaratdi.

Tadqiqot shuni koʻrsatdiki, Turkistondagi milliy harakatlar — Turkiston Muxtoriyati, Alash-Oʻrda, yosh buxoroliklar va yosh xivaliklar tashabbuslari tarixda “yoʻqolib ketgan imkoniyatlar” sifatida emas, balki haqiqiy milliy davlatchilik konsepsiyasi uchun qilingan ilk urinishlar sifatida qayta baholanishi lozim. Ushbu harakatlarning sovet hokimiyati tomonidan qonli yoʻllar bilan yoʻq qilinishi va ularning oʻrnini ideologik jihatdan liberal, milliy-demokratik mazmundan mahrum etilgan sovet tipidagi “milliy respublika”lar egallashi Turkiston xalqlari tarixiy xotirasida chuqur iz qoldirgan. Shu maʼnoda, Turkistonda sovet hokimiyati tomonidan “milliy” sovet respublikalarini barpo etish siyosatiga faqat bir davr chegarasidagi maʼmuriy-

siyosiy islohot sifatida emas, balki butun Markaziy Osiyoning zamonaviy davlatchilik modellari, chegaraviy nizolari, etnik va konfessiyaviy munosabatlari, shuningdek, markaz-periferiya munosabatlarini belgilab bergan hal qiluvchi omil sifatida yondashish zarur. Mazkur masalani chuqur o'rganish, arxiv manbalari va yangi tarixshunoslik yo'nalishlari asosida qayta tahlil qilish bugungi kunda nafaqat tarix fanining, balki mintaqadagi zamonaviy siyosiy jarayonlarni to'g'ri anglashning ham muhim shartlaridan biri bo'lib qolmoqda.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. 1917 йил 2 ноябрда эълон қилинган. Манба: “Правда” газетаси. № 178. 1917 йил 3 ноябрь
2. Bergne P. “The Kokand Autonomy 1917-1918” In Tom EVERETT-HEATH(ed.), “Central Asia: Aspects of Transition”. RoutledgeCurson Print, New York, 2003
3. Cameron S. “The Kazakh Famine of 1930-33: Current Research and New Directions”, Journal of Ukrainian Studies, Cilt:3, Sayı:2, 2016, S.119
4. Cucciola R.M. “The Crisis of Soviet Power in Central Asia: ‘The Uzbek cotton affair’(1975-1991)”, IMT School for Advanced Studies, Lucca, Italy, 2017.
5. Daniels R.V. “A Documentary History of Communism in Russia: From Lenin to Gorbachev”, University Press of New England, United States of America, 1993.
6. Dave B. “Minority Rights: Cultural Diversity and Development in Central Asia”, School of Oriental and African Studies, Bishkek, October 2004, P.10-12
7. Ellman M. “Stalin and Soviet Famine of 1932-1933 Revisited”, Europe-Asia Studies, Volume:59, No:4, June 2007, University of Glasgow, P.664-665
8. Erşahin S. “Türkistan’ın “Verilen Bağımsızlık”tan “Alınan Bağımsızlığa” Yürüyüşü Üzerine Bazı Değerlendirmeler”, Ankara Üniversitesi İlahiyat Fakültesi Dergisi, Cilt. XLIV, Sayı. 1, Ankara, 2003, S.316
9. Hasanoğlu İ. “Homo Sovieticus: SSCB’de Sovyet Halkı İnşası Çabaları”, Turkish Studies: International Periodical for The Languages, Literature and History of Turkish or Turkic, Volume:10, No:1, Ankara.
10. Kanlidere A. “Sovyet Döneminde ve Sonrasında Orta Asya Türk Tarihi”, AÖF, Eskişehir, 2013, 4.baskı, S.194
11. Koigeldiev M. “The Alash Movement and The Soviet Government: A Difference of Positions”, Tomohiko Uyama ed., Empire, Islam, and Politics in Central Eurasia, Slavic Research Center of Hokkaido University, Japan, 2007, P.156
12. Reed J. “The Ten Days That Shook The World”, Global Grey, 2018,
13. Бухарская Народная Советская Республика”. Большая советская Энциклопедия. Москва. 1969, <https://dic.academic.ru/dic.nsf/bse/72017/%D0%91%D1%83%D1%85%D0%B0%D1%80%D1%81%D0%BA%D0%B0%D1%8F>
14. Декреты Октябрьской революции. Том 1. Москва.1933. С.28-30
15. Ражабов Қ. 1924: Туркистоннинг парчаланиши (Совет давлатининг Ўрта Осиёда миллий-худудий чегараланиш сиёсати). Тошкент. 2024.
16. Ражабов Қ. Бухорога қизил армия босқини ва унга қарши кураш: тарих ҳақиқати (1920-1924 йиллар). Тошкент. 2002.
17. Ражабов Қ. Туркистон истиқлолчилик ҳаракати архив ҳужжатларида // “Ўзбекистон тарихи” журнали. 2022 йил 1-сон. 148-154-бетлар
18. Ражабов Қ. Туркистон Мухторияти тарихи. Тошкент. 2023. 15-бет
19. Ражабов Қ. Ўзбекистон XX асрда. Биринчи жилд (1900-1939). Тошкент. Фан. 2024.
20. Ратыковский И., Ходяков М. История Советской России. СПб. 2001. С.26

21. Сафаров Г. Колониальная революция (Опыт Туркестана). Москва. Госиздат. 1921. С.67
22. Сталин И.В. Соченения. Том 2. Москва. Госудаарственная издательство политической литературы. 1954.
23. Туркестан в начале XX века: к истории истоков национальной независимости. Редактор: Р. Раджапова –Ташкент: “Шарк”, 2000.
24. Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси архиви (ЎЗР ПАА). 60-жамғарма, 1-рўйхат. 3177-йиғмажилд. 4-варақ.
25. Ўзбекистон тарихи (1917 – 1991 йиллар). Иккита китоб. Биринчи китоб. 1917-1939 й. Масъул муҳаррирлар: Р.Абдуллаев, М.Рахимов, Қ.Ражабов. –Тошкент: “O‘zbekiston”, 2019.
26. Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Масъул муҳаррир: М. Жўраев. –Тошкент: “Ўзбекистон”, 2000.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 1 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).